



Gender tenglik va ayollarning huquqlari

Inomjonova Muhayyoxon Adhamjonovna

Boymurodova Hosila Baxtiyorovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining

“Xalqaro huquq” fakultetining 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqola bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylangan gender tenglik ya'ni ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglik masalasi va ayollarning hozirgi zamon jamiyatida tutgan o'rni va huquqlariga bag'ishlanadi. Gender tengligi erkaklar va ayollar uchun natijalarning tengligi emas, balki bu natijalarni belgilovchi omillardagi tenglik, ya'ni imkoniyatlar yoki resurslar, huquqlar va ovozda tenglik hisoblanadi.

Kalit so'zlar: gender tenglik, ayollarning huquqlari, normativ-huquqiy hujjatlar, gender tenglikni ta'minlash, qonunchilikdagi o'zgarishlar, diskriminatsiya


Kirish:

Gender tengligi masalasiga yuzlanadigan bo'lsak, avvalo, gender atamasiga izoh berib o'tish joizdir. “Gender” so'zi aslini olganda inglizcha so'z bo'lib, zot so'zining tub ma'nosi va jinslar, jinslararo munosabatlarni anglatadigan tushuncha bo'lib hisoblanadi.

Jins tushunchasi ijtimoiy qurilma yoki holat sifatida, ya'ni fiziologik voqelikning asosi bo'lgan ma'nolarni anglatadi. Biroq keying yillarda u ancha keng tushunchaga aylanib, deyarli barcha fanlarga taalluqli ijtimoiy voqelikni anglatmoqda. Ayollar va erkaklar o'rtasidagi biologik tabiiy farqlar, ularning xatti –harakatlari, madaniy va ijtimoiy tavsiflarini aniqlash va yaxshiroq farqlash uchun “gender” atamasi qabul qilingan.

Bu tushuncha nisbatan yangi atama, ya'ni 1975 –yilda qo'llanila boshlangan. Biroq fanda unga bog'liq qarashlar va fikrlar anchadan buyon anglanilib kelingan. “Ayollar huquqlari deklaratsiyasi”ni e'lon qilgan Olimpiya de Guj [XIII] gacha ayollardan foydalanish, ularni kamsitish, zo'rlash inson sha'nini toptovchi hodisa ekani hech kimning o'yiga kelmagan. Olimpiya de Gujdan keyin ham ahvol o'zgarmadi. Yevropa ayollari o'z erki uchun hali-hanuz tinmay kurashib keladilar. “Erk in'om etilmaydi uni kurashib qo'lga kiritadilar” –degan hikmat haq ekan.

Qadimgi davr madaniyatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ayol kishiga faqat “ONA” va “XOTIN” sifatida qarashlar oldingi o'ringa chiqib qolgan edi. Ularning jamiyatda ham, ta'limda ham o'rni yo'q edi. Bu holat ayniqsa chekka hududlardagi ayollarning psixologiyasi va dunyo qarashlarini qoloq qilib yubordi. Bu esa o'z navbatida, farzandlar tarbiyasiga anchayin kuchli ta'sir qildi. Sababi ayollar uyda ko'p vaqtini bolalari bilan o'tkazadi, bu esa farzandlariga ta'lim yoki ma'naviy tomonlama ozuqa berolmaganligiga amin bo'lganmiz.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Xotin qizlarga kamsituvchi qarashlar va urf odatlar aqidalar uchrab turadi. Bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish xotin-qizlarni chinakamiga yangi demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatining teng huquqiylik bunyodkoriga aylantirish yo'lida insoniyat ma'naviyati xazinasiga, aniqroq qilib aytganda g'arbdagi xotin-qizlarning harakati natijasi o'laroq gender tenglik degan nazariya bo'ldi. Gender nazariyasi vujudga kelishi, bugungi kunda ijtimoiy-madaniy gumanitar rivojlanishning muqobil nazariyasiga aylangan fenizm hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Material va metodlar

Tadqiqot natijasida gender tenglik ya'ni erkaklar va ayollarning huquqlari o'rtasida hech qanday ustuvorlik yo'q ekanligini va ularning kelib chiqishi haqida bayon etildi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan ayol va erkak huquqlari tengligi haqida aytib o'tildi.

Tadqiqot natijalari

Mamlakatimizda so'ngi besh yil davomida gender tenglik masalasiga ulkan ahamiyat berilmoqda. Gender tenglik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan alohida e'tibor qaratilayotgan va qo'llab-quvvatlash zarurligi e'tirof etilayotgan muxim masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatida faoliyatining ilk kunlaridanoq asosiy e'tiborni ayollar va oila muammolariga qaratib kelmoqda. Natijada o'tgan davrda gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan "Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori shular jumlasidandir. Ushbu qaror mohiyatan inson huquqlarini himoya qilish, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, umuman, jamiyatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'z navbatida, 2019-yil 2-sentyabrda qabul qilingan "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga huquqiy kafolat hisoblanadi. Mazkur Qonun davlatimiz rahbarining 2019-yil 7-martda qabul qilingan "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan.

"Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, ushbu Qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Qonunda gender tushunchasiga ham ta'rif berilgan. Gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir.

Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarinigina ifodalamaydi. Balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, ularga hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berishni huquqiy kafolatlaydi. Binobarin, har qanday rivojlangan demokratik jamiyatning muhim talablaridan biri ham shu — ayollar va erkaklar huquqlari tengligining ta'minlanishidir.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2021-yil 22-fevral kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasida so'zlagan nutqida gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlar qat'iy davom ettirilishini ta'kidladi. Shu maqsadda joriy yilda O'zbekistonda Markaziy Osiyo mamlakatlari yetakchi ayollarining muloqoti va xotin-qizlarning mintaqaviy biznes-forumini o'tkazish rejalashtirilayotganiga e'tiborni qaratdi. Prezidentimiz 2020-yilning 23-sentyabrda video anjuman shaklida o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-yubiley sessiyasidagi nutqida ham O'zbekistonda gender tenglik siyosati ustuvor masalaga aylanganini alohida qayd etgani bejiz emas. Chunki keyingi yillarda yurtimizda xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi o'rni tobora kuchayib bormoqda. Parlamentimizda ayol deputatlar soni ikki barobar ko'paydi.

Haqiqatan ham, bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning o'z imkoniyatlarini to'laqonli ro'yobga chiqarishlari uchun barcha shart-sharoitlarni ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. O'zbekistonda bir qator qonunlar, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan.

Gender tenglik bo'yicha tegishli institutsional choralar ham ko'rilmogda. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Bu yangi tuzilma ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanmogda.

Shuni alohida qayd etish kerakki, 1948-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ayollar va erkaklarning tengligi alohida e'tirof etilgan. Deklaratsiyaning 1-moddasida belgilanganidek, «Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak».

BMT tomonidan 1966-yilda qabul qilingan yana bir xalqaro-huquqiy hujjat — Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro paktning 3-moddasida ta'kidlanganidek, «Mazkur paktida ishtirok etuvchi davlatlar erkaklar va ayollar uchun





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ushbu Paktda ko'rib chiqilgan barcha fuqarolik va siyosiy huquqlardan bir xilda foydalanishini ta'minlash majburiyatini oladi».

Aynan mazkur xalqaro normalar "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunida o'z aksini topgan. Binobarin, yuqorida qayd etilgan xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qilgan mustaqil davlatimiz xalqaro huquqning umume'tirof etilgan talablaridan kelib chiqib, o'z milliy qonunchiligida ayollar va erkaklar tengligi masalasiga jiddiy ahamiyat berishining sababi ham asoslidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, shubhasiz, ana shu asosning ustuvor huquqiy kafolati hisoblanadi. Asosiy qonunimizning 58-moddasida «Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar», deb belgilangan. Shu ma'noda, O'zbekistonda gender tenglikning ham xalqaro-huquqiy, ham konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari kafolatlangan. Gender tenglik ijtimoiy tenglikni ham anglatadi. Bunday tenglikni ta'minlash uchun Konstitutsiya va qonunlarga zarur qoidalarni kiritishning o'zi kifoya emas. Shu bois ham, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayol va erkak teng huquqli bo'lgan jamiyat quramiz, bu yetib bo'lmaydigan natija emas.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasining 58-moddasida Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar, davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashi belgilab qo'yilmoqda. Ushbu modda bugungi jamiyatimiz uchun qanchalik dolzarbligi xususida bizda bir qancha savollar yuzaga kelishi mumkin.

– Hozirda gender tengsizligi sabab jamiyatda qanday muammolar ko'rishimiz mumkin?

– Gender tengsizligi sabab jamiyatning barcha jabhasida, jumladan, iqtisod, sog'liqni saqlash, ta'lim, kasbiy o'sish, madaniyat sohalarida ko'plab muammolarni ko'rish mumkin. Masalan, iqtisodiy barqarorlikni olsak, yildan-yilga ortib borayotgan daromadlardan foydalanish imkoniyati ayollarda kamroq ekani sir emas. Bu o'z navbatida ish bilan ta'minlanish imkoniyatiga, shuningdek, ularning iqtisodiy barqarorligiga sezilarli ta'sir qiladi. Zo'ravonlik va diskriminatsiyaga ham ayollar ko'proq duch keladi. Bu ularning sog'lig'i va keyingi hayoti uchun jiddiy oqibatlar olib keladi. Ta'lim va ishdagi imkoniyatlar tengsizligi sabab ayollar hali ham boshqaruv va yetakchilik tuzilmalarida faol emas. Oqibatda ayolning jamiyatga ta'siri cheklanmoqda. Sog'liqni saqlashdan foydalanish imkoniyati ham teng emas. Ammo shu bilan birga, ayollarning tashqi ko'rinishi va o'zini qanday tutishi kerakligi bo'yicha jamiyatda umumiy stereotiplar shakllanib qolgan. Bu esa ayol uchun bosim hisoblanadi. Ayol va erkak huquqlarining tengsizligi nafaqat ayolning o'ziga, butun jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatib, ayol imkoniyatlarini cheklamoqda. Turmush sharoitini yomonlashtirmoqda. Bu muammolarni hal etish davlat va jamoat tashkilotlarining teng hamkorligi va targ'ibotini taqozo etadi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

– Muammolar ildizi aslida ham ayol va erkakning teng emasligidan yuzaga kelmayaptimi? Degan savol har birimizda vujudga kelishi mumkin. Gender tengsizligi aslida jamiyat tomonidan ayollar uchun teng bo'lmagan sharoitlar yaratilib, qo'llab-quvvatlanayotganidan kelib chiqmoqda. Muammoning ildizi jamiyatda rivojlanayotgan madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy stereotiplarda yotadi. Agar biz bu stereotiplarni yengib, hamma uchun teng imkoniyatlar va huquqlarga ega bo'lgan jamiyat yaratsak, gender tengsizlik muammosi o'z-o'zidan hal bo'ladi. Shuningdek, ko'plab erkaklarda noto'g'ri tasavvur bor. Gender tengligi ayollarning rolini erkaklarga nisbatan ko'tarish deb tushunishadi. Gender tengligi teng huquq va imkoniyatlarni anglatadi. Ya'ni, ayollarga ishlash yoki ishlamaslik, bolalarni rejalashtirish, o'qish, kasb-hunar egallash, teng maosh olish va hokazolarni o'zlari hal qilish imkoniyatini berishdir.

– Ayol xodimning homilador bo'lishi va tug'ruq ta'tiliga chiqishi sabab rahbar ishga qabul qilishga ikkilanadi. Agar bilim, malakada teng bo'lgan ayol va erkak nomzod bo'lsa, albatta, erkakni ishga olishga harakat qilinadi. Yangilanayotgan konstitutsiyada bu masalalarga amalda yechim bo'la oladigan o'zgarishlar mavjud bo'lib.

– So'nggi 5-6 yil ichida jamiyatda ayollarga munosabat yaxshi tomonga o'zgardi. Buni ayollar huquqlari haqida ko'proq gapirilayotganidan ham sezish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, «Ayol uyda bolalarga qarashi kerak. Ayol rahbar bo'la olmaydi. Qizlarga o'qish shart emas...» kabi asossiz qoliplarni olib tashlashga xizmat qiladi.

Ammo yana ko'rinyaptiki, harakatlar yetarli emas. Huquqiy asosni mustahkamlashga ehtiyoj bor. Konstitutsiya loyihasining 58-moddasi ayollar uchun katta imkoniyatlar ochib beradi. Bugun xotin-qizlarning o'zlari orzu qilgan sevimli kasbi bilan shug'ullanishi, ilm-fan, kasbiy cho'qqilarni zabt etishi uchun barcha imkoniyat va sharoitlar teng qilib yaratilmoqda. Yangi moddada ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatimizda barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning faol tashabbuskor ishtirokchisi ekanini huquqiy asoslab bermoqda.

Bugun ayollarimiz va qizlarimiz barcha sohalarida faol. Masalan, rahbarlik lavozimlarida xotin-qizlar ulushi 27 foizga, partiyalarda 44 foizga, tadbirkorlik faoliyatida esa 35 foizga yetdi. Bu borada 25 ta qonun hujjatlari qabul qilindi. Ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida 2030-yilgacha mamlakatimizda gender tengligiga erishish strategiyasi tasdiqlandi.

Biroq shuni tushunish kerakki, Konstitutsiya va qonunchilikni o'zgartirish bilan gender tengsizlik muammolari o'z-o'zidan yechilib qolmaydi. Biz qonunchilik bilan birga, shakllanib qolgan ijtimoiy-madaniy me'yorlar va stereotiplarni ham o'zgartirib borishimiz kerak. Gender muammolarini har tomonlama idrok etish uchun jamoatchilikni xabardor qilish bo'yicha axborot ishlarini olib borishimiz zarur. Shundagina natija bo'lishi mumkin.

– Ayol va erkak teng huquqli bo'lishi yetib bo'ladigan marrami? Bunga erishish uchun qilinayotgan ishlar yetarli deb o'ylaysizmi? Shu yo'ldagi harakatlarda qanday kamchiliklar ko'rasiz kabi muammoli vaziyatlar va savollar barchamizni shu kungacha





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qiyinab kelayotgan savollardan biri hisoblanadi va bu savollarga turli xil javoblar olishimiz mumkin.

–Ayollar va erkaklar o‘rtasidagi tenglikka erishish yetib bo‘ladigan maqsad deb hisoblanadi. Ammo bu tez amalga oshadigan jarayon emas. Chunki gender tengsizligi bilan bog‘liq muammolar madaniy va ijtimoiy tuzilmalarga chuqur singib ketgan. Ayollar uchun teng bo‘lmagan sharoitlarni yaratadigan munosabat va stereotiplarni o‘zgartirish uchun jiddiy qarorlar kerak. Yangilanayotgan Konstitutsiya loyihasi aynan shunga xizmat qiladi. Huquqlar tengligi yo‘lidagi harakatda asosiy kamchiliklardan biri – ko‘pchilik muammo borligini tan olmasligida, deb bilamiz. Agar biz muammoni ko‘ra olsak, tan olishdan qo‘rqmay, yechimi uchun to‘g‘ri harakat qila olsak, natija bo‘ladi, albatta. Bu yerda erkaklarning o‘rni ham katta. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatmoqdaki, gender tengsizligiga qarshi kurashda erkaklar faol bo‘lgan davlatlar muvaffaqiyat qozonmoqda.

Islom manbalarida kelgan xotin-qizlarning oila va jamiyatdagi huquqlari haqida.

Yurtimiz zaminida ayol zoti azaldan yuksak darajada e‘zozlangan. Xotin qizlarning oiladagi mavqei sog‘lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, farzand tarbiyasiga mashg‘ul bo‘lish bilangina o‘lchanmagan. Bu borada muqaddas islom dinida xotin-qizlarga alohida ehtirom ko‘rsatilib, barcha insonlar, jinsidan qat’i nazar, teng ekani aytiladi. Islom dini ayolga zulm qilmaydi, uni hech qanday huquqlardan mahrum qilinmaydi, aksincha, uni eng yuksak qadr-qimmatga ko‘taradi, unga to‘liq huquqlarni beradi, adolatsizlik va aldanishdan himoya qiladi. Ayollarning asosiy vazifasi oilani himoya qilishdir. U o‘z farzandlarini tarbiyalab, ularga yaxshi axloqiy va islomiy qadriyatlarni singdirib, ularda mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Shuningdek ayol oilaning farovonligini ta’minlaydi va uning iqtisodiy faolligi va mahsuldorligini oshiradi. Ayol oilada g‘amxo‘rlik va mehr manbai bo‘lib xizmat qiladi. Ko‘plab tadqiqotlar shuni isbotladiki, bolaga hayotning dastlabki bosqichlarida zarur bo‘lgan g‘amxo‘rlik va e’tibor unga kerak bo‘lgan moddiy narsalardan ko‘ra muhimroqdir. Ona bolaning yagona o‘qituvchisi hisoblanadi va uning ta’lim funktsiyasi bolaga katta ta’sir ko‘rsatadi. Chunki ular uning o‘zini anglashi, o‘ziga ishonchi, shaxsiyatini shakllantirish va tayyorlashda rol o‘ynaydi. Ushbu bosqichning bola hayotidagi ahamiyatini hisobga olib, uni onasi diqqat bilan kuzatishi shart. Uning dastlabki yillarida o‘rgangan narsasi butun umri davomida u bilan qoladi. Xotin qizlarning roli faqatgina uning oiladagi mavqei, vazifalari bilan belgilanmaydi. Ayollar jamiyat rivojida ham muhim ahamiyatga egadirlar. Ularning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi rolini beqiyosdir. Jamiyatda ayollar faol rol o‘ynaydilar. Bu borada zamonaviy qonunlarda ayollar huquqlari, ularning jamiyatdagi faoliyati, rivojlanishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bundan tashqari islom dinida, xususan, islom fiqhi (huquqshunosligi) da ham ayollarning huquq va majburiyatlari, ularning o‘rniga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Alloh taolo Payg‘ambar sollallohu alayhivasallam orqali ayollarning qadr-qimmatini yuksaklarga ko‘tarib, Qur’oni karimda ham ular uchun alohida sura nozil qildi. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam hadisi shariflarida ayollarga oid barcha masalalar, jumladan, ularning





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jamiyatdagi o'rni, oiladagi, farzand tarbiyasidagi roli, ilm tarqatishdagi mas'uliyati, ularning jamiyatdagi siyosiy ahamiyati va boshqa bir qancha masalalarga to'xtalib o'tishgan hisoblanadi.

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda gender tenglikka erishishda xotin-qizlarning jamiyatdagi mavqeini yanada kuchaytirish masalasi davlat va jamiyatning doimiy diqqat markazida turibdi. Zero, bu muhim omil oilani mustahkamlash, yuqori intellektual darajadagi yosh avlodni voyaga yetkazish, jamiyat barqarorligini ta'minlashning asosiy poydevori hisoblanadi. Gender tenglikni ta'minlash va ayollarning huquqlarini himoya qilish ijtimoiy adolatni mustahkamlaydi va jamiyatni barqaror rivojlanishga olib keladi. Bu faqat ayollar uchun emas, balki butun jamiyat uchun foydali bo'lgan maqsaddir.

REFERENCES:

1. <https://sciencebox.uz/index.php/siyosatshunoslik/article/view/10355/9464>
2. <https://xabar.uz/h6os>
3. <https://web-journal.ru/index/index>
4. <https://yandex.uz/>
5. Azamat Ziyoy, O'zbek ayollari tarix sahnasida, Toshkent O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" –2002 23 –
6. Jabborova Ruhsora, "Gender tenglikni amalga oshirishdagi islohotlar", "Xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tengligi" mavzusida ilmiy-amaliy anjuman ma'ruzalar to'plami Toshkent –2021 , 21-b

